

YOSHLARDA KREATIV FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH

MASALALARI

Qoraqolpog‘iston Respublikasi PYAMO‘MM

katta o‘qituvchisi Q. Yusupov

Kelajagimiz poydevori bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash, ularning dunyoqarashini shakllantirishda ham o‘zini o‘zligini, qadr qimmatini, huquq va erkinliklarini, o‘tmishi va bugungi kunini ob‘ektiv xolatda astoydil tushunish, solishtirish va taqqoslash asosida to‘g‘ri baholash natijasida vujudga keladigan tasavvur va xulosalariga ega bo‘lishida ular bilan ta‘lim va tarbiyada o‘zaro faol va hamkorlikda ishlash alohida o‘rin egallamoqda.

Bugungi kunda yoshlarimizning oldiga ijtimoiy va iqtisodiy hayotning quyayotgan talablari ularda kreativ fikrlashga bo‘lgan ehtiyojlari ortib bormoqda. *Kreativlik so‘zi (lot., ing. “create ” – yaratish, “creative ” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat hisoblanadi* Kreativlik xususiyati, uning ilmiy-nazariy asoslari, o‘quvchilarda kreativlikni shakllantirishda motivatsiyaning ahamiyati va interaktiv metodlar yordamida ijodiy tafakkurni rivojlantirish xususiyatlarini bayon qilish demakdir. O‘quvchilarda ijodiy tafakkur – kreativlikni ular uchun qulay va qiziqarli bo‘lgan sohalarda namoyon etib tarbiyalash, umumta‘lim muassalarining barcha fan pedagoglarining birinchi galdagi vazifasiga kiradi. Ko‘pgina hollarda o‘quvchilarning noan‘anaviy, yangicha (nostandart) yondoshilgan ishini ko‘rgan odam buni faqat o‘ta qobiliyatli yoki iste‘dodli odamgina bajara olishi mumkinligi haqida o‘ylaydi. Holbuki, odamlarni hayratga soluvchi bunday ishlarni hamma ham bajara olishi mumkin. O‘quvchilarda layoqat, iste‘dod, kreativlik har qancha hayratomuz bo‘lmasin, ta‘lim-tarbiyadan tashqaridagi faoliyatda kamol topa

olmaydi. Kreativlikni rivojlantirishning eng unumli yo‘llaridan biri barcha o‘quvchilarni yoshligidanoq mahsuldor ijodga va mehnatga o‘rganish bilan mashg‘ul bo‘lishga jalb etish, darslarni ijodiy tarzda tashkil qilish, turli xil noan‘anaviy dars usullaridan keng foydalanish kerak. Ta‘lim oluvchilarda ijodiylik, ijodiy tafakkur – kreativlikni, ijodiy qobiliyat va iqtidorni rivojlantirish uchun ta‘lim jarayonida turli xil usullar, rivojlantiruvchi texnologiyalar yordamida ular avvalo keng tafakkurni, irodaviy xususiyatlarni, o‘ziga nisbatan ishonch tuyg‘usini, faollik va faoliyatni, mehnat qilish ko‘nikmalarini, maqsad sari intilish xususiyatlarini tarkib toptirish lozim. Ana shunda ta‘lim-tarbiya maqsadlariga to‘la ma‘noda erishish mumkin. O‘quvchilar bu maqsadlar yo‘lida o‘qituvchi va sinf rahbarlari bilan birgalikda o‘z ustilarida tinmay izlanishlari, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishlari, o‘z ichki tabiiy imkoniyatlarini faol ishga solgan holda ijodiy qobiliyat va iqtidorlarini keng namoyon qilishlari kerak.

Fikrimizcha, o‘quvchilarda kreativlik qobiliyatini o‘stirishning quyidagi yo‘llari mavjud:

1. Texnologiya. Konstruktorlik o‘yinlari va boshqotirmalar. Mazkur faoliyat o‘quvchilardagi tabiiy layoqatni shakllangan tus olishiga va ijodiy qobiliyatning dastlabki kurtaklarini amaliy faoliyatda namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi.
2. Tasviriy san‘at. O‘quvchi mazkur faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishi natijasida, undagi xayol va tasavvur jarayonlari rivojlanadi. Mazkur rivojlanish o‘z navbatida tafakkurga stimuly beradi. Natijada, mazkur bilish jarayonlarining muvofiqlashuvi ijodiy qobiliyatning kashf etish xususiyatini yuzaga keltiradi.
3. Musiqa. hissiyotlar sezgisi odamlarda etakchi o‘rin tutadi. To‘qson foiz axborotni ko‘rish orqali qabul qilamiz. Ammo, musiqani ko‘rish mumkin emas. U eshitiladi va his qilinadi. Demak, musiqa bilan shug‘ullanish o‘quvchi ruhiyatidagi “mudroq” xususiyatlarni jonlanishga olib kelishini taxmin qilishimiz mumkin.

Demak o'quvchilarning o'quv faoliyatlari va mashg'ulotlarida ularning tashabbus ko'rsatishlarini ta'minlash va ular orqali samarali natijalarni qo'lga kiritish mumkin. SHuningdek, axborot kommunikatsiya texnologiyalari , internet orqali berilayotgan ta'lim – fandagi eng so'nggi g'oyalar yoki texnologiyalar (turli dizayndagi konstruktorlik ishlari, rassomlar ijodidan turli tasvirlar va manzaralar) bilan tanishish orqali o'zlarining ijodiy fikrlashlarini rivojlantirishsa ularning ta'lim va tarbiya olishdagi uzlariga bo'lgan ishonch tuyg'usi oshib boradi.

Umuman olganda o'quvchilarga ta'lim va muloqat jarayonida shunday usul va yo'llarni qo'llash kerakki bilim olish va kelajak haqidagi tasavvurlarini ruyobga chiqarish o'quvchilarning o'z qo'llarida ekanin tushunib etsin.

Adabiyotlar

- 1.Педагогик маҳорат”. Ўқув –услугий мажмуа. Тошкент – 2017
- 2.Н.МУСЛИМОВ, М.УСМОНБОЕВА, Д.САЙФУРОВ, А.ТЎРАЕВ
«ПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНТЛИК ВА КРЕАТИВЛИК АСОСЛАРИ»
Тошкент – 2015 йил.
3. Ishmuhamedov R.J, Yuldashev M.A, “Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar”. T.: “Nihol”, 2013.